

MUHAMMAD IBN ROSHID AL-MAKTUMNING ASARLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Mohizoda Abdug'ani Jahongir qizi
O'ZDJTU Lingvistika: arab tili fakulteti
Magistratura talabasi
abduganimohizoda@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Birlashgan Arab Amirliklari hukmdori, Shayx Muhammad ibn Rashid Al-Maktumning asarlaridagi frazeologik birliklarning leksik-semantik tahlili o'rganiladi. Maqola frazeologik birliklarning Sharqona madaniyat va tarixiy sharoitlarda ishlatilishiga, ularning zamonaviy kontekstdagi o'zgarishi va ta'siri masalalariga ham tegishli. Tadqiqot natijalari, ma'lumotlar bazasini kengaytirish, o'quv qo'llanmalari va turli tadqiqotchilar uchun foydali ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kutilmoqda. Ushbu maqola, Shayx Muhammad ibn Rashidning nutqi va yozish uslubining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar. Muhammad ibn Roshid al-Maktum, frazeologik birlik, leksik-semantik tahlil

Аннотация: В данной статье рассматривается лексико-семантический анализ фразеологизмов в творчестве шейха Мохаммеда бин Рашида Аль Мактума, правителя Объединенных Арабских Эмиратов. В статье также говорится об использовании фразеологизмов в восточной культуре и исторических условиях, их изменении и влиянии в современном контексте. Ожидается, что он будет включать результаты исследований, расширение базы данных, учебные пособия и полезную информацию для различных исследователей. В данной статье раскрываются отличительные особенности стиля речи и письма шейха Ибн Рашида.

Ключевые слова. Мохаммед бин Рашид Аль Мактум, фразеологическая единица, лексико-семантический анализ

Abstract: This article examines the lexical-semantic analysis of phraseological units in the works of Sheikh Mohammed bin Rashid Al Maktoum, the ruler of the United Arab Emirates. The article also refers to the use of phraseological units in Eastern culture and historical conditions, their change and influence in the modern context. It is expected to include research findings, database expansion, teaching aids, and useful information for various researchers. This article reveals the distinctive features of Sheikh Ibn Rashid's speech and writing style.

Keywords. Mohammed bin Rashid Al Maktoum, phraseological unit, lexical-semantic analysis.

Kirish

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) hukmdori Shayx Muhammad ibn Rashid Al-Maktumning ijtimoiy va siyosiy sohada katta ta'sir ko'rsatgan qarashlari va siyosatlarini, ko'pincha nutq va yozma asarlarida ifodalangan. Uning nutqlarida va yozma asarlarida

frazeologik birliklar (idiomalar, iboralar) keng qo'llanilgan bo'lib, ular ma'lum bir madaniy va ijtimoiy kontekstga ega. Ushbu tadqiqot, Shayx Muhammad ibn Rashid Al-Maktumning asarlaridagi frazeologik birliklarning leksik-semantik tahlili orqali, ularning ma'no boyligini, kontekstual o'zgarishlarini va siyosiy-ijtimoiy sohaga ta'sirini o'rganadi.

Maqola ushbu frazeologik birliklarning kelib chiqishi, tarixiy va madaniy konteksti, zamonaviy foydalanishdagi o'zgarishlari va ularning ma'lumotlar bazasidagi mavqei kabi masalalarga qiziqadi. Bu tahlil, tadqiqotchilar uchun foydali ma'lumotlar bazasini shakllantirishga va o'quv qo'llanmalari va kelgusidagi o'rganishlar uchun yangi istiqbol yaratishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Frazeologiya - bu tilning frazeologik birliklari o'rganadigan ilmiy fan. Ular ma'lum bir ma'noning katta yoki kichik semantik yaxlitligi va an'anaviy ishlatilishi bilan tavsiflangan barqaror, bo'linmas so'z birikmalari sifatida tushuniladi, ularni bitta so'z bilan almashtirilishi mumkin; Frazeologizmlar umuman tilda, muayyan yozuvchi tilida, alohida badiiy asar tilida va hokazolarda turg'un birikmalar majmui deb ham ataladi¹.

Muhammad ibn Roshid al-Maktum "Xomsuna Qissotiy" asarida "عرش الطاووس" iborasini ishlatgan. Bu frazeologik birlik arabcha bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda "tovus taxti" degan ma'noni anglatadi. Biroq, bu iboraning majoziy ma'nosi ancha chuqurroq va boyroqdir. Aslida "tovus taxti" deb Hindiston Imperatori taxtiga nisbatan ishlatilgan. Buning sababi taxtning orqa tarafida raqsga tushayotgan tovuslar bo'lgan. 1635-yildan 1739-yilgacha Hindistonning Mo'g'ul imperatorlari qarorgohi bo'lgan. U odatda boylik, qudrat, shon-shuhrat va hashamatning ramzi sifatida ishlatiladi. Ya'ni, taxtning o'zi emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan narsalar – shohning qudrati, uning buyukligi, o'zining ulug'vorligi va boshqalar ko'zda tutilgan. "Tovus" qushi esa go'zalligi, nafisligi va noyobligi bilan mashhur. Shuning uchun "tovus taxti" iborasi juda hashamatli va ulug'vor bir narsani ifodalaydi.

Shunday qilib, "عرش الطاووس" iborasi shunchaki taxtni emas, balki shohning butun qudratini, shon-shuhratini va hashamatini anglatadi va adabiyotda ramziy ma'noda keng qo'llaniladi.

Muhammad ibn Roshid al-Maktum o'z asarida foydalangan frazeologik birlikka kelsa, u "يكسر حاجزا جديدا" iborasidir. So'zma-so'z tarjima qilganmizda "yangi to'siqni yengmoq" yoki "yangi to'siqni buzmoq" degan ma'noni anglatadi. Ushbu iborani quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

يكسر: Bu fe'l bo'lib, "sindirmoq", "buzmoq", "yengmoq" degan ma'nolarni bildiradi.

حاجزا: Bu ot bo'lib, "to'siq", "g'ov", "chegara" degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'z taraqqiyotga, rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi narsani ifodalaydi.

¹ Zakirov R.R., Mingazova N.G. Praktikum po leksikologii arabskogo yazika - Kazan: TGGPU — 138 s., 2009

جديدا: Bu sifat bo'lib, "yangi" degan ma'noni bildiradi. Bu sifat "to'siq" so'zini aniqlab, uning yangi, avval uchratilmagan to'siq ekanligini ta'kidlaydi. Bu yangi qiyinchilikka duch kelishni, oldin bunday muammo bo'lmaganligini anglatadi.

Umuman olganda, iboraning ma'nosi so'zma-so'z tarjimadan ancha kengroq. Bu iborada taraqqiyot, yutuq, yangiliklarga erishish va chegaralarni yengish kabi ma'nolar yashiringan. "Yangi" so'zi yutuqning ahamiyatini, qiyinchilik va innovatsiya darajasini bildiradi. Fe'lning faol ravishda ishlatilishi esa kuch va qat'iyatni ta'kidlaydi. Ibora majoziy ma'noda ham ishlatilishi mumkin, ya'ni "to'siq" jismoniy to'siq emas, balki har qanday turdagi qiyinchilik, muammo yoki to'sqinlik bo'lishi mumkin.

Keying iboramiz esa, "بناء مناعة" frazeologik birligi, u to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda "immunitet qurish" degan ma'noni anglatadi. "Immunitet so'zi lotincha immunitas so'zidan kelib chiqqan. Immunitet tananing turli kasalliklardan himoyalaniş xususiyatidir. U organizmni turli yot moddalardan himoya qiladi. Immun tizimi juda murakkab mexanizmga ega, uning vazifasi ichki organizmning muvozanatini saqlash va virus, bakteriya, zamburug' va boshqa zararli moddalardan himoya qilishdir"². Ammo, bu shunchaki so'zma-so'z tarjimasi emas, uning ma'nosi ko'proq kontekstga bog'liq. Tahlilini quyidagicha ko'rib chiqish mumkin:

بناء: Bu fe'l, "qurish", "barpo qilish", "shakllantirish" degan ma'nolarga ega. Bu faollik va jarayonni ta'kidlaydi.

مناعة: Bu ot, "immunitet", "qarshilik", "bardoshlilik" degan ma'nolarni o'z ichiga oladi. Bu qarshilik ko'rsatish, muammoga yoki ta'sirga qarshi chidamlilik haqida ma'no ifodalaydi.

Umumiy ma'no: "بناء مناعة" immunitetni shakllantirish, yoki o'ziga qarshilik qiladigan qobiliyatni hosil qilish jarayoni/holiga ishora qiladi. Bu faollikni (qurilish) va chidamlilikni (immunitet) birlashtirganligi sababli, u qiyinchiliklarga, salbiy ta'sirlarga yoki kasalliklarga qarshi kurashishning kuchini ta'kidlaydi.

Metaforik ma'nosi esa, frazeologik birlik shunchaki tibbiy sohaga emas, balki umumlashtirilgan holatlarga ham tatbiq qilinishi mumkin. Masalan, psixologik immunitet qurish, muayyan vaziyatlarga qarshi kuchli yondashuvni o'zlashtirish, xarakterini mustahkamlash kabi ma'nolari ham mavjud. Xulosa qilib aytganda, "بناء مناعة" frazeologik birligi odamning noqulay vaziyatga qarshi kurashish qobiliyatini, chidamliligini yoki immunitetini hosil qilish jarayoni sifatida tushuniladi. Bu jarayon faollikni, kuchni va chidamlilikni bildiradi.

Xulosa

Ushbu maqola Birlashgan Arab Amirliklari hukmdori Shayx Muhammad ibn Roshid Al-Maktumning asarlaridagi frazeologik birliklarning leksik-semantik tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqot frazeologik birliklarning ma'no boyligini, kontekstual o'zgarishlarini va ijtimoiy-siyosiy sohaga ta'sirini o'rganadi. Xususan, frazeologik birliklarning kelib chiqishi, tarixiy-madaniy konteksti, zamonaviy foydalanishdagi

² Almamatov Jasur Mirza o'g'li, & Bozorova Ruxshona Dilshod qizi. (2023). IMMUNITET NIMA VA U NIMA UCHUN KERAK?. Scientific Impulse, 1(8), 987-988

o'zgarishlari va ularning ma'lumotlar bazasidagi mavqei yoritiladi. Maqolada "عرش الطاووس" ("tovus taxti") va "يكسر حاجزا جديدا" ("yangi to'siqni buzmoq") iboralarining tahlillariga alohida e'tibor beriladi. "عرش الطاووس" Hindiston imperatorlarining taxtiga ishora qilib, hashamat va qudratni ramziylashtiradi. "يكسر حاجزا جديدا" esa, taraqqiyot, yutuq va yangiliklarga erishishni ifodalaydi. Maqola frazeologik birliklar tahlili asosida o'quv qo'llanmalarini yaratish va kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlarni belgilab beradi. Asosan, maqola hukmdorning frazeologiya orqali ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni ifodalash uslubini o'rganishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 b.
3. Muhammad ibn Roshid al-Maktum. (2018). Xomsuna qissotiy. Dubay. Explorer
4. Zakirov R.R., Mingazova N.G. Praktikum po leksikologi arabskogo yazika - Kazan: TGGPU — 138 s., 2009
5. Almatov Jasur Mirza o'g'li, & Bozorova Ruxshona Dilshod qizi. (2023). IMMUNITET NIMA VA U NIMA UCHUN KERAK?. Scientific Impulse, 1(8), 987–988.